

Haitov Jahongir Shodmonovich

Buxoro davlat universiteti jahon tarixi
kafedrasi mudiri, tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

Aslonov Axmadjon Gani o'g'li

Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha)
ta'lim yo'nalishi 2-bosqich magistranti

O'ZBEKISTON MUSTAQILLIGINING DASTLABKI YILLARIDA MDH DAVLATLARI BILAN HAMKORLIK ALOQALARI TARIXIDAN

Ushbu maqolada O'zbekistonning mustaqillikka erishgan dastlabki yillarida MDH davlatlari bilan savdo-iqtisodiy, madaniy-ma'rify, diplomatik sohadagi hamkorlik aloqalari adabiyotlar tahlili va internet saytlari orqali ochi berilgan.

Kalit so'zlar: Diplomatiya, hamkorlik aloqasi, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi, siyosat, iqtisodiyot, xalqaro tashkilot, tashqi siyosat, elchixon, konsullik idorasi, davlat, migratsiya, madaniyat.

ИЗ ИСТОРИИ СОТРУДНИЧЕСТВА УЗБЕКИСТАНА СО СТРАНАМИ СНГ В ПЕРВЫЕ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

В данной статье в первые годы независимости Узбекистана через анализ литературы и интернет-сайтов раскрываются отношения сотрудничества со странами СНГ в торгово-экономической, культурно-просветительской, дипломатической сферах.

Ключевые слова: дипломатия, сотрудничество, Содружество Независимых Государств, политика, экономика, международная организация, внешняя политика, посольство, консульство, государство, миграция, культура.

FROM THE HISTORY OF UZBEKISTAN'S COOPERATION WITH THE CIS COUNTRIES IN THE EARLY YEARS OF INDEPENDENCE

In this article, during the first years of Uzbekistan's independence, cooperation relations with the CIS countries in the trade-economic, cultural-educational, diplomatic spheres are revealed through the analysis of literature and internet sites.

Keywords: diplomacy, cooperation, Commonwealth of Independent States, politics, economy, international organization, foreign policy, embassy, consulate, state, migration, culture.

Kirish. Insoniyat jamiyatida davlatlar paydo bo'libdiki, ular o'rtasida u yoki bu darajada siyosi, iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatilgan. Dastlabki davlatchilik Misr, Mesopotamiya, Elam (hozirgi Eron hududi), Hindiston va Xitoyda bundan 3,5 – 5 ming yillar muqaddam vujudga kelgan. Xuddi mana shu davrlardan boshlab davlatlarning bir-biri bilan tashqi aloqalari yo'lga qo'yilma boshlagan. Ilk davlatlararo aloqalar, asosan, tovar ayirboshlash, ya'ni o'zaro savdo orqali amalga oshirilgan. Hozirgi kunda dunyoda xalqaro huquqning **defakto** subyektlari deya tan olingan, muayyan hududni egallaydigan, mustaqil yoki o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega va davlat sifatida tan olingan 230 ga yaqin mamlakatlar mavjud bo'lib, ular 400 dan ortiq xalqaro, xalqaro-mintaqaviy tashkilotlar hamda ularning sohalararo alohida bo'limlari va boshqa assosiatsiyalar, qo'mitalar doirasida yoki ayrim davlatlar bilan o'zaro doirada jahon siyosiy-iqtisodiy jarayonlarida qatnashadilar. Mazkur faoliyat orqali davlatlar o'z tashqi siyosatlarini amalga oshiradilar.

Adabiyotlar sharhi. O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligi tarixi mavzusi bugungi kunga qadar ilmiy jihatdan chuqur o'rganilib kelinayotgan mavzulardan hisoblanadi. Shu

sababdan, bu mavzuni tadqiq etishda tuzilayotgan xalqaro shartnomalar va rasmiy xabarlar asosiy manba vazifasini bajaradi. Qolaversa, davriy matbuot materiallari, hukumat tomonidan qabul qilingan huquqiy-me'yoriy hujjatlar to'plamlarni ham o'z navbatida mavzu mazmunini oydinlashtirishga xizmat qiladigan manbalar sirasiga kiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ishda O'zbekistonning MDH davlatlari bilan mustaqillikning dastlabki yillardagi hamkorligi tarixi xronologik ketma-ketlikda tahlil etiladi. Shuiningdek, tarixiylik tamoili asosida tarixiy jarayonlarda hamkorlik shartnomalarining imzolanishi, savdo-sotiq aloqalar, yutuq va muammolari hamda istiqbollari ohib beriladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. O'zbekistonning dunyo hamjamiyati va davlatlari bilan to'laqonli diplomatik munosabatlarga kirishishi, asosan, 1991-yildan, ya'ni Vatanimiz istiqlolga erishgan yillardan boshlandi. O'zbekiston tashqi siyosati tez orada dunyoning rivojlangan davlatlari va nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan "tasdiqlash diplomatiyasi" deb e'tirof etildi. Bunday baho o'z mohiyatiga ega bo'lib, vujudga kelgan muammolarni tizimli va bosqichma-bosqich hal etishdir. Diplomatik maqsad va vazifalarni ro'yobga chiqarishda O'zbekiston, avvalo, "o'zbek modeli", mentalitetining hayotiy milliy manfaatlaridan kelib chiqadi [1.620].

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini 2002-yil yanvar oyiga qadar jahonning 190 dan ziyod davlati tan oldi, 2015-yil 1-iyul holatiga ko'ra mamlakatimiz 130 dan ziyod davlat bilan diplomatik aloqalar o'rnatdi. Toshkenda 45 ta chet el elchixonalari, 9 ta faxriy konsullar, 11 ta xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalari, 5 ta xalqaro moliyaviy tashkilot, 3 ta savdo vakolatxonalari diplomatik status bilan faoliyat olib bormoqdalar. Respublikamizning 46 ta diplomatik va konsullik vakolatxonalari chet ellarda va xalqaro tashkilotlar vakolatxonalarida o'z faoliyatini amalga oshirmoqdalar [10].

O'zbekiston o'z tashqi siyosatini respublika Tashqi ishlar vazirligi va o'zining xorijdagi vakolatxonalari orqali amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investisiyalar va savdo vazirligi hamda mamlakatdagi ayrim xalqaro tashkilot, kengash va jamiyatlar O'zbekistonning tashqi aloqalarida o'z vakolatlari doirasida masalalarni hal etishga ko'maklashadi. Tashqi ishlar vazirligi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, mamlakat Prezidenti farmonlari, ko'rsatmalari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va o'z Nizomiga asoslanadi. Uning asosiy vazifasi O'zbekiston Respublikasining davlat suvereniteti qat'iyatini, mamlakat Prezidentining tashqi siyosat sohasidagi yo'lini hayotga tadbiq etish, xorijiy davlatlar bilan munosabatlarda, shuningdek, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda O'zbekistonning manfaatlari va uning fuqarolari huquqlarini himoya kilishdan iboratdir. 1991-yil 21-dekabrda Olma-otada 11 davlat – Rossiya (B.Yelsin), Ukraina (Leonid Kravchuk), Belorus (Stanislav Shushkevich), Qozog'iston (N.Nazarboyev), O'zbekiston (I.Karimov), Qirg'iziston (A.Akayev), Tojikiston (R.Nabiiev), Turkmaniston (S.Niyozov), Ozarbayjon (Ayaz Mutalibov), Armaniston (Levon Ter-Petrosyan), Moldaviya (Mirche Snegur) – boshliqlarining kengashida Beloveje Pushcha shartnomasi yuzasidan protokol imzolanib, "Teng huquqli va ahdlashayotgan oliv tomonlar" maqomida MDH tuzildi. 1993-yil 24-dekabrda Ashxobodda bo'lgan MDH davlatlari boshliqlarining kengashida Gruziya ham MDHga a'zo bo'ldi va 2009-yil 18-avgustda tarkibdan chiqdi [10].

O'zbekiston tashqi siyosatining diqqat markazida MDH doirasidagi mamlakatlar bilan o'zaro teng manfaatli aloqalarni mustahkamlash bo'ldi. Chunki mustabid tuzum sharoitida hukm surgan boshqaruvning markazlashtirilgan ma'muriy-buyruqbozlik usuli, sobiq ittifoq tarkibiga kirgan mamlakatlarni iqtisodiy jihatdan bir-biriga shunday bog'lab qo'ygan ediki, natijada ular o'zaro qaramlik domiga tushib qolgan edilar. Shuning uchun sobiq ittifoq tarkibidan ajralib chiqqan yosh mustaqil davlatlar mavjud qiyinchiliklar hamda iqtisodiy inqirozdan chiqishning birdan-bir yo'li bir yoqadan bosh chiqarib, birgalikda harakat qilish ekanligini yaxshi bilishar edi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, sobiq ittifoqning deyarli barchasi (Boltiqbo'yi respublikalaridan tashqari) MDHni qo'llab-quvvatladilar, shu jumladan, O'zbekiston ham.

O'zbekiston MDH doirasida tuzilgan barcha bitim va shartnomalarni qo'llab-quvvatlab keldi va ko'plab shartnomalarning tashabbuskori bo'ldi. Masalan, mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga, ekologik vaziyatni yaxshilashga qaratilgan sa'y-harakatlarning oldingi qatorlarida faoliyat olib bormoqda (Afg'oniston masalasi, Markaziy Osiyoniy yadro qurolidan xoli hududga aylantirish, Orol muammosi, giyohvand moddalar savdosiga qarshi kurash va boshqalar).

14

1992-yil 25-mayda Toshkentda MDHga a'zo davlatlar rahbarlari bilan bo'lgan uchrashuv yuqoridagi fikrimizga dalil bo'la oladi. Bu uchrashuvda O'zbekiston Hamdo'stlik doirasida kollektiv xavfsizlik tizimini barpo etish tashabbusi bilan chiqdi va ana shu masala yuzasidan shartnama imzolandi [1.627]. O'zbekiston o'zining qat'iy mustaqil taraqqiyot yo'lidan borish, o'zgalarga tahdid qilmaslik, boshqalar suverenitetini hurmat qilish bilan MDHda o'zining munosib va qat'iy nuqtai nazariga ega bo'ldi. Bu quyidagilarda namoyon bo'ldi:

• birinchidan, O'zbekiston avval boshdan MDH tarafidori bo'lib chiqdi. Chunki sobiq ittifoq davridagi respublikalararo an'anaviy munosabatlar yangi vaziyatga mos ravishda davom ettirilishi kerak edi;

• ikkinchidan, bunday Hamdo'stlik mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlab, bu davlatlarning siyosiy mustaqilligiga daxl qilmasligi lozim edi. MDHga a'zo barcha davlatlar o'tish davrining qariyb bir xil murakkabliklarini boshdan kechirdi. Shuning uchun iqtisodiy bo'ronnlarni bartaraf etish, bozor munosabatlarini shakllantirish jarayonida yillar mobaynida bir-biriga o'zaro chambarchas bog'liq ishlab chiqarish va xo'jalik munosabatlarini yanada yaxshilash zarur edi. MDH Nizoming qabul qilinishi munosabati bilan unga a'zo davlatlar rahbarlarining Bayonotida ham shu narsa ko'zda tutilgan edi. 1993-yil sentyabrda imzolangan MDH davlatlari o'rtasidagi "Iqtisodiy Ittifoq" haqidagi shartnama ham ana shu maqsadlarni nazarda tutdi. Bu me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va joriy qilishda O'zbekiston alohida o'ringa ega bo'ldi;

• uchinchidan, O'zbekiston MDHga a'zo davlatlar bilan o'zaro ikki taraf uchun ham foydali hamkorlik qilishga hamisha tayyor va o'z tashqi siyosatida shunga intilib keladi. MDHga a'zo davlatlarning deyarli barchasi bilan ana shunday hamkorlikda ish olib borilyapti [1.631].

O'zbekiston MDHdagi barcha mamlakatlarning o'z mustaqilligini mustahkamlash yo'lidagi intilishlarini qo'llab-quvvatlamoqda va bu sobiq ittifoqdosh respublikalar o'rtasidagi har taraflama hamkorlikni yanada kuchaytiradi, deb hisoblaydi. O'zbekiston barcha mustaqil davlatlar hududiy butunligini va ularning chegaralari daxlsizligini tan oladi. Ichki hududiy janjallarga aralashmaydi va bularga o'sha mamlakatlarning ichki ishlari, deb qaraydi. Bundan tashqari, u MDHga a'zo ikki davlat o'rtasidagi munosabatlardan chetga chiqadigan masalalarni MDH doirasida ko'rib chiqish tarafidori. O'zbekistonning yana bir nuqtai nazari shundan iboratki, MDH ichida hech bir davlatning qo'li baland kelishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Bu O'zbekiston hukumati, uning rahbariyatining qat'iy yo'li, O'zbekiston xalqining xohish-irodasi. Biroq, ayrim mamlakatlar siyosatida allaqanday nufuz va ortiqcha imtiyozlarga erishishga moyilliklar sezila boshladi. Teng huquqli mustaqil davlatlar hamkorligi tamoyillaridan chekinish, o'zlariga ko'proq va kengroq imkoniyat yaratish, aniqrog'i, katta og'achilik singari yaqin o'tmishdagi nufuzlarini yo'lga qo'yishga intilishlar bo'ldi. Bularga erishishning turli-tuman yo'llarini izlashdi. Jumladan, mustaqillikning ikkinchi yilidayoq Rossiyaning ayrim siyosatchilari ikki fuqarolik muammosini ko'tarib chiqdilar. Emishki, sobiq ittifoq tarkibidan ajralib chiqqan mamlakatlarda rus millatiga mansub aholi yashayotgan ekan, ularga o'z mamlakati qatorida Rossiya fuqaroligi ham berilishi zarur emish. Vaholanki, jahon davlatchiligi tarixi, xalqaro inson huquqlari tajribasi bunday hodisani ko'rмаган. Bu bevosita ma'lum bir davlat mustaqilligini mensimaslik, uning Konstitutsiyasini tan olmaslik, qolaversa, ichki ishlariga aralashish hamda millatlararo nizolarni keltirib chiqarishdan boshqa narsa emas edi.

O'zbekiston MDH doirasida kollektiv xavfsizlik tizimini yaratish masalasining tashabbuskori bo'lib chiqqan edi (MDH davlat rahbarlarining 1992-yil sentyabr Toshkent uchrashuvida), lekin bu tizimning keyingi davrlarda kiritilgan ayrim yangiliklari davlatimiz tashqi siyosatining asosiy tamoyil va yo'naliishlari mos kelmay qoldi. Masalan, shartnama qatnashchilarining birlashgan batalonini tuzish, bu batalonning MDH doirasidagi turli mojarolar (agar shuday mojarolar kelib chiqsa)ni bartaraf etishda qatnashishi va boshqa shunga o'xhash shartlari. Natijada, O'zbekiston kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi shartnomaga o'z qat'iy pozisiyasida turib, Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan tashqi siyosiy tamoyillariga sodiq qolgan holda yondashdi. 2006-yil 16-avgustda Sochi shahrida O'zbekiston "Kollektiv xavfsizlik to'g'risida shartnomasi" (ODKB) ga qo'shilib, 2012-yil 19-dekabrda undan rasman chiqdi. Chiqishining sababi, yuqorida keltirilgan asoslar[10].

MDH davlatlari doirasidagi yana bir ichki tuzilma bu – YevrAzESdir. 2006-yilning 25-yanvarida Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tgan YevrAzES (a'zo davlatlar – Rossiya, Belorussiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston; kuzatuvchi davlatlar – Moldova, Armaniston, Ukraina) sammitida O'zbekistonning Hamjamiyatga a'zo bo'lishi hamda MOHTning YevrAzES bilan

birlashishi haqidagi qaror qabul qilingan edi. YevrAzESning 2006-yil iyunda Minskda bo‘lib o‘tgan sammitida YevrAzES doirasida Bojxona ittifoqi va Yagona iqtisodiy makon tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Mazkur qarorning samaradorligiga shubha qilgan O‘zbekiston hukumati 2008-yilning oktyabrida YevrAzESdagi faoliyatini to‘xtatish to‘g‘risida bayonot berdi va 2008-yilning 12-noyabrida bu tuzilma bilan aloqalarini rasman to‘xtatdi [10]. Lekin, shunga qaramasdan, O‘zbekiston MDH doirasidagi faoliyatini hecham susaytirgani yo‘q. Garchi, kollektiv xavfsizlik to‘g‘risidagi shartnomadan chiqqan bo‘lsa-da, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy va ilm-fan sohasidagi aloqalarni qo‘llab-quvvatlab, bu yo‘nalishlarda ham ikki tomonlama, ham ko‘p tomonlama faol harakat qilmoqda. Masalan, 2012-yilda O‘zbekistonning MDH davlatlariga jami eksporti 13,1 mlrd. dollarни tashkil etgan [9].

Prezidenti I.Karimov 2015-yil 15-16 oktyabrdagi, Qozog‘iston poytaxti Ostonada bo‘lib o‘tgan MDHning navbatdagi kengashida qatnashdi. Kengash kun tartibiga 17 masala qo‘ylgan. Ulardan 4 tasi tor doirada, faqat prezidentlar ishtirokida, muhokama qilinadi: BMT tashkil qilinganiga 70 yil bo‘lgani, xalqaro terrorizm, MDH keyingi Kengashi o‘tkazish joyi va unda raislik masalasi. MDH kengaytirilgan tartibda Chernobil AESda avariyasi, migrantsiya masalalari, 2016-2020-yillarda MDH chegaralarini mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqildi [11].

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillaridanoq dunyoning eng nufuzli xalqaro tashkilotlari, mintaqaviy tashkilotlar va tuzilmalar tomonidan e’tirof etildi hamda mamlakatimiz bilan teng huquqli asoslarda keng ko‘lamli aloqalarni o‘rnatdi. O‘zbekiston bu tashkilotlarning oddiy a’zosigina bo‘lib qolmasdan, ularning ishida o‘z qat’iy pozisiyasida turib, u yoki bu voqeа-hodisalarga shaxsiy nuqtai nazarini bildirishi bilan birgalikda, o‘zining aniq takliflarini kiritmoqda va ularning e’tirof etilishiga erishmoqda. Ayniqsa songi 5-6 yilda O‘zbekiston nafaqat MDH davlatlari bilan balki, dunyoning barcha mintaqalaridagi davlatlar bilan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlarni yo‘lga qo‘yishda davom etayotgani quvonarli holatdir

Foydalanimanligi adabiyotlar

1. Ўзбекистоннинг янги тарихи (Мустақил Ўзбекистон тарихи) (тўлдирилган ва қайта нашр). Тошкент. “Шарқ”. 2009. 3-китоб.
2. Давлатлар ва халқаро ташкилотлар. Тошкент. “Академия”. 2005.
3. Мустақил Ўзбекистон тарихининг дастлабки сахифалари (даврий тўплам). №3. Тошкент. “Шарқ”. 2000.
4. Тараккиёт ва ҳамкорлик йўллари: Ўзбекистон ташқи сиёсати ва дипломатияси. Тошкент. “Ўзбекистон”. 1993.
5. Халқаро муносабатлар. Тошкент. “Академия”. 2006.
6. Лафасов М. Ўзбекистон Республикасининг халқаро алоқалари. Тошкент. 1995.
7. Мирсаатова С., Расулов М. Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсати: тарих ва ҳозирги замон (ўқув-услубий кўрсатма). Фарғона. 2015.
8. Муродов X., Мухаммадиев Н., Жамолов F. Ўзбекистон жаҳон ҳамжамияти сафида. Тошкент. F.Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 2000.
9. Халқ сўзи // 2013 й. 7 ноябрь.
10. <http://ru.wikipedia.org>
11. <http://sputniknews-uz>